

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

G.T. Tulemetova, N.X. Oblomurodov, O‘.M. Hasanboyev

DINSHUNOSLIK

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va
o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan
darslik sifatida tavsiya etilgan*

**TOSHKENT
«IQTISOD-MOLIYA»
2019**

UDK: 2-1(075.8)

BBK 86.2ya7

Taqrizchilar: *t.f.d., prof. M.M. Ishoqov;*
f.f.d., prof. Z.D. Davronov

D 53 Dinshunoslik: Darslik / G.T. Tulemetova, N.X. Oblomurodov,
O‘.M. Hasanboyev; – T.: «Iqtisod-Moliya», 2019. – 336 b.

Ushbu darslik jamiyat ma'naviy hayotida dinning tutgan o'rni, uning turli shakllari, ta'limoti, yo'nalishi va oqimlari, vijdon erkinligi, diniy bag'rikenglik tamoyillari, diniy dunyoqarash, O'zbekistonda din va diniy tashkilotlar faoliyati, din niqobidagi radikal diniy oqimlar, shaxs tarbiyasida milliy va diniy qadriyatlar uyg'unligi masalalarini qamrab olgan.

Mazkur fan gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar blokiga kiritilgan bo'lib, darslik Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari talabalari hamda dinning falsafiy, ijtimoiy va psixologik jihatlariga qiziquvchilar ommasiga mo'ljallangan. Barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun darslik.

UDK: 2-1(075.8)

BBK 86.2ya7

ISBN 978-9943-13-823-0

© G.T. Tulemetova, N.X. Oblomurodov,

O‘.M. Hasanboyev, 2019

© «IQTISOD-MOLIYA», 2019

KIRISH

Dinshunoslik fanini o'rganishning dolzarbligi dinlar xususiyatlarini bilish, u bilan bog'liq ma'naviy madaniyat va ijtimoiy hayot to'g'risida yaxlit tasavvur olish imkonini berishi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yilning boshida "Dinshunoslik" fani bo'yicha barcha ta'lim bosqichlari uchun yangi formatdagi g'quv dasturlari va darsliklarni yaratishga hamda yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash ishlariga muhim e'tibor qaratildi. "Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga jaholat va murosasizlik tashkil etadi", – deb ta'kidladi davlatimiz rahbari BMTning 72-sessiyasidagi nutqida va yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish hamda maxsus rezolyutsiyani qabul qilish tashabbusi bilan chiqdi. 2018-yil 12-dekabrda BMT Bosh Assambleyasida «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» rezolyutsiyasi qabul qilindi. Yoshlarning tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifa qilib belgilandi: "Ko'p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o'rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi"¹. Yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash masalasi ularda mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirish vazifasi bilan hamda internetning tahdidlaridan himoyalash bilan bog'liq. 1990-yillardan boshlab din kibermakonni o'zlashtirish jarayonida faol ishtirok etmoqda. Radikal diniy tashkilotlarning saytlari ko'pincha dinlararo ziddiyatlarni

kuchaytiruvchi virtual munozaralar platformasiga aylanib bormoqda. Dunyo dinlari haqidagi bilimlarga ega salohiyatli dinshunoslarni tayyorlash yoshlar ongini ekstremistik g'oyalar bilan zaharlanishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyo dinlari masalalari borasida ta'lim berish jamiyatda bag'rikenglik muhitini yaratishning muayyan vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu vazifalar O'zbekistonning 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida o'z aksini topgan².

O'rta asrlar Sharqi islom dinini o'rganish sohasida boy ilm to'plagan, shu bilan birga diniy manbalarni qiyosiy tadqiq etish tajribasini orttirgan. Bu yuqori salohiyatli dinshunoslar tayyorlash uchun muhim ahamiyatga ega. Islomofobiya ortib borayotgan bir vaqtda islomning haqiqiy insonparvarlik mohiyatini, uning insonparvarlik asoslarini dunyo hamjamiyatiga yetkazish zaruriyati ham ortmoqda. Ma'rifatli din to'g'risidagi bilimlarni tarqatish zo'ravon ekstremizm va diniy fanatizmga qarshi kurash vositasi bo'lishi mumkin. Prezidentimiz 2019-yil 15-iyunda Dushanbeda bo'lib o'tgan Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo'yicha Kengashning beshinchi sammitidagi nutqida dinlararo hamjihatlikni mustahkamlash, ma'rifat va madaniyatlarni o'zaro boyitish masalalari bo'yicha tizimli muloqotni yo'lga qo'yishni taklif qildi. Xususan, Toshkentdagi O'zbekiston islom sivilizatsiyasi markazi va Samarqanddagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi buning uchun samarali platforma bg'lib xizmat qilishi mumkinligini ta'kidladi³. Dindorlar uchun din ma'naviy ehtiyojlari va vijdon erkinligi huquqlarining qondirilishi omilidir. Biror dinga nisbatan betaraf kishi uchun din ma'naviy qadriyatlar va diniy san'at bilan tanishish imkoniyatini yaratadi. Diniy qadriyatlar, axloq va huquq normalariga mos marosimlarda ishtirok etish xalqimizning birdamligi, xayrli an'analarini his qilishga imkon beradi.

Bir darslikda din sohasining hamma jihatlarini to'liq qamrab olishning iloji yo'qligi ma'lum, shunday bo'lsa-da, mualliflar tomonidan dinshunoslik fanini sodda usulda to'la yoritishga imkon qadar harakat qilindi.

Ushbu darslik mualliflari o'z materiallari va tavsiyalari bilan uni mukammallashtirishga yordam bergan barcha insonlarga minnatdorchilik izhor etadilar.